



SOLIQQA OID HUQUQBUZARLIK VA ULAR UCHUN JAVOBGARLIK

Bank-moliya akademiyasi magistranti
Qodirov Sardor Sattorovich
Qodirov_SS@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida soliqqa oid huquqbuzarlik va ular uchun javobgarlik qo‘llashning o‘ziga xos jihatlari, javobgarlikni liberallashtirish va bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilingan. Shuningdek, soliqqa tortishning huquqiy asoslari, O‘zbekiston soliq tizimi, jumladan, yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tartibi, davlat budjetining soliqsiz daromadlari hamda budjetdan tashqari jamg‘armalarga majburiy to‘lovlarni undirish mexanizmining huquqiy-meyoriy ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: soliqqa tortish, budjet daromadlari, soliqlar va yig‘imlar, soliq kodeksi, soliqqa oid huquqbuzarlik, soliq qonunchiligini buzish, moliyaviy sanksiya, penya, jarima, soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik, ma‘muriy javobgarlik.

Annotation: this article analyzes the specifics of the application of tax offenses and liability in the Republic of Uzbekistan, liberalization of liability and reforms carried out in our country in this regard. Also, the legal framework of taxation, the tax system of Uzbekistan, including the procedure for taxing legal entities and individuals, the tax-free income of the state budget and the legal-meyory mechanism for charging mandatory payments to non-budgetary funds were considered.

Keywords: taxation, budget revenues, taxes and fees, tax code, tax infringement, violation of tax legislation, financial sanction, pension, fine, liability for tax offenses, administrative liability.

Kirish

Soliqqa oid huquqbuzarliklar – soliq qonunchiligini buzish ham huquqqa xilof qilmishning alohida bir turi sifatida namoyon bo‘ladi. Javobgarlik asosida qanday soliq qonunchiligi buzilishi turganligiga qarab, bu huquqqa xilof qilmishni moliyaviy, ma‘muriy va jinoiy javobgarlik asoslari sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Shu sababli, soliq qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlikning asosini aniqlash - soliq solish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni samarali tartibga solishda katta nazariy va amaliy ahamiyatga egadir¹.

Soliqlar va yig‘imlar haqidagi qonun hujjatlarini buzish hamda uning xavfli shakllaridan biri bo‘lgan soliq jinoyatlarini sodir etish davlatning iqtisodiy xavfsizligiga zarar yetkazadi. Bunday xatti-harakatlar soliq solish tizimiga, davlat daromadlarini shakllantirish mexanizmiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Chunki har bir

¹ Amanov A.M., Djmalov X.N., Soliq huquqi – O‘quv qo‘llanma, Toshkent-2019, 293-bet



davlatning soliq solish sohasiga uning ximoyalanganligi yoki xavfsizlik darajasi katta ta'sir ko'rsatadi. Soliq xavfsizligi - soliq tizimining holatini belgilab, soliqlar va yig'implarni undirish orqali davlat va mahalliy tuzilmalarni to'liq va to'xtovsiz moliyalashtirishni ta'minlaydi.

Soliq qonunchiligini buzishning asosiy ko'rinishlaridan biri – bu soliq huquqbuzarligi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bo'yicha esa soliqqa oid huquqbuzarlik) hisoblanadi.

Soliq huquqbuzarligi barcha huquqbuzarliklar singari, birinchi navbatda – qilmish, ya'ni harakat yoki harakatsizlikda ifodalanadi. Harakat shaxsning faol xulq-atvori, harakatsizlik esa shaxsga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganlikda ifodalanuvchi passiv xulq-atvoridir.

Soliq huquqbuzarligini sodir etishga qaratilgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik) - qonunga xilof hisoblanadi. Soliq huquqbuzarligini sodir etish bilan soliq qonunchiligi normalarining talablari buziladi. Agar qilmish qonun hujjatlari talabalarini buzmasa, huquqbuzarlik hisoblanmaydi².

Soliq huquqbuzarligi – bu aybli qilmishdir. Soliq huquqbuzarligini sodir etishga qaratilgan qilmishda aybning mavjud bo'lishi, ya'ni soliq huquqbuzarligi qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilgan bo'lishi lozim. Agar qilmishda ayb shakli mavjud bo'lmasa, huquqbuzarlik hisoblanmaydi.

Soliq to'lovchining Soliq kodeksida javobgarlik belgilangan g'ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) soliqqa oid huquqbuzarlik, deb e'tirof etiladi. Sodir etilgan qilmish bilan zararli oqibat o'rtasida uzviy bog'liqlik bo'lishi lozim. Zararli oqibat aynan qonun hujjatida nazarda tutilgan qilmish natijasida yuzaga kelgan bo'lishi kerak. Agar bunday bog'liqlik bo'lmasa, qilmish – huquqbuzarlik hisoblanmaydi. Soliq huquqbuzarligini sodir etishga qaratilgan qilmish uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan bo'lishi kerak. Agar qonun hujjatida javobgarlik nazarda tutilmagan bo'lsa, bunday qilmish huquqbuzarlik hisoblanmaydi³.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzu doirasida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda olib borilayotgan tadqiqotlar va ularning tajribalariga tayanamiz.

R.L.Matsueda va boshqalar (2006) fikricha, soliq tekshiruvidan keyingi soliq qonunchiligiga soliq to'lovchining tekshirish natijasida olgan qonunchiligini buzganlik uchun jarima ham ta'sir qilishi mumkin: yuqori jarima kichikroq jarimaga qaraganda, auditdan keyingi soliq qonunchiligining ko'proq bajarilishiga olib kelishi mumkin. Haqiqatan ham, oldingi ishlar ruxsat etilmagan jinoiy huquqbuzarliklar aniqlash va jazolanish xavfini kamaytirishini aniqladi.

² Майбурова И.А., Налоги и налогообложение: учеб. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2010. – 559 с.

³ OECD. (2021). Building tax culture, compliance and citizenship: A global source book on taxpayer education (2nd ed.). OECD Publishing



Bunday xatti-harakatlar A.Kahneman va D.Tverskiyning (1974) mavjudlik evristikasi bilan izohlanishi mumkin, ular odamlar qaror qabul qilish xavfini salbiy natijani tasavvur qilish orqali baholaydilar. Agar salbiy oqibat “jonli tasvirlangan” bo‘lsa, bu hodisa “juda xavfli bo‘lib ko‘rinishi mumkin, garchi falokatlarni tasavvur qilish qulayligi ularning haqiqiy ehtimolini aks ettirmasligi kerak. Aksincha, ba’zi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni tasavvur qilish qiyin bo‘lsa yoki shunchaki xayolga kelmasa, xavfni qo‘pol ravishda kam baholab qo‘yish mumkin”⁴.

M.Bernaskoni va J.Bernxofer (2020) samarasiz soliq tekshiruvlari jami muvofiqlikni oshiradi degan gipotezani qo‘llab-quvvatlaydi va bu natijani soliq to‘lovchilarning murakkab aniqlash lotereyalarini noto‘g‘ri tushunishi bilan bog‘laydi, bunda soliq tekshiruvlari ma‘lum bir natijaga olib kelmaydi.

T.Engida va G.Baisaga (2014) ko‘ra, ma‘lumotli soliq to‘lovchilar soliq to‘lashdan qochish yo‘llari haqida ko‘proq ma‘lumotga ega bo‘lishlari mumkin bo‘lsada, ular soliq tizimini yaxshiroq tushunishadi va ularning rivojlanish darajasi soliqqalarga nisbatan qulayroq munosabatda bo‘lishga va soliq qonunchiligiga rioya qilishni kuchaytirishga yordam beradi⁵.

Umuman olganda adabiyotlarni o‘rganish bo‘yicha shakllangan fikrimiz, soliq oid qonunlarga rioya qilishni tushunish iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik nuqtai nazarlarni birlashtirgan ko‘p tarmoqli yondashuvni talab qiladi. Soliqqa oid qonunlarga rioya qilish xatti-harakatlarini tushuntirish va bashorat qilish uchun bir qancha nazariyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning har biri jismoniy va yuridik shaxslarga ta‘sir qiluvchi omillar haqida o‘ziga xos tushunchalarni taqdim etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari hamda ularni sodir etganlik uchun javobgarlikga oid ilmiy tadqiqotlar o‘rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo‘llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida javobgarlik belgilangan g‘ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) soliqqa oid huquqbuzarlik deb e‘tirof etiladi.


Jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarligi o‘n olti yoshdan boshlab vujudga keladi. Agar jismoniy shaxs sodir etgan soliqqa oid huquqbuzarlikda O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat alomatlari bo‘lmasa, bu huquqbuzarlik uchun Soliq kodeksida nazarda tutilgan javobgarlik kelib chiqadi.

⁴ OECD/FIIAPP. (2015). Building tax culture, compliance and citizenship: A global source book on taxpayer education. OECD Publishing

⁵ Isaeva F., O‘zbekiston respublikasida soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik qo‘llashning o‘ziga xos jihatlari // Yuridik fanlar axborotnomasi, Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent, -2021



Yuridik shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilishi tegishli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, uning mansabdor shaxslarini ma'muriy, jinoiy va boshqa javobgarlikdan ozod etmaydi. Soliqqa oid huquqbuzarlik turlari quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin:



1-rasm. Soliqqa oid huquqbuzarlik turlari⁶

Soliq to'lovchining soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortilishi uni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatidan ozod etmaydi.

Shaxsning aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmaguniga qadar u soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda aybdor hisoblanmaydi. Javobgarlikka tortilayotgan shaxs o'zining soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikda aybsiz ekanligini isbotlashi shart emas.

Soliq to'lovchi tomonidan soliqqa oid bir necha huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar uncha og'ir bo'lmagan moliyaviy sanksiyani og'irroq jarima bilan qamrab olish yoxud tayinlangan jarimalarni to'liq yoki qisman qo'shish orqali soliqqa oid huquqbuzarliklar majmui bo'yicha qo'llaniladi. Bunda jarimaning uzilkesil miqdori jarimaning yuqori miqdori nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun belgilangan eng ko'p miqdoridan oshishi mumkin emas.

Shaxs soliqqa oid huquqbuzarlik uchun soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganligi faktining yo'qligi yoki soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilishida shaxsning aybi yo'qligi mavjud bo'lgan taqdirda javobgarlikka tortilishi mumkin emas: soliq

⁶ Amanov A.M., Djmalov X.N., Soliq huquqi – O'quv qo'llanma, Toshkent-2019, 293-bet



to'lovchi soliq tekshiruvi o'tkazilguniga qadar xatoni o'zi tuzatgan taqdirda javobgarlikdan ozod etiladi, penya to'lash bundan mustasno⁷.

Shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishni istisno qiladigan holatlar deb quyidagilar e'tirof etiladi:


- huquqbuzarlik sodir etish vaqtida o'n olti yoshga to'lmagan jismoniy shaxs tomonidan soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilganda; - soliq majburiyatlari bo'yicha da'vo muddatlari tugaganda. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni engillashtiruvchi holatlar deb quyidagilar e'tirof etiladi:

- og'ir shaxsiy yoki oilaviy sharoitlar kechishi oqibatida huquqbuzarlik sodir etish;

- tahdid yoki majburlash ta'sirida yoxud moddiy, xizmat yoki boshqa jihatdan qaramlik sababli huquqbuzarlik sodir etish;

- sud tomonidan javobgarlikni engillashtiruvchi deb topilishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar.

Soliqqa oid huquqbuzarlikning ilgari xuddi shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan sodir etilganligi javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat deb e'tirof etiladi. Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib, pul undirish (jarimalar va penya) tarzida qo'llaniladi. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga – soliq to'lovchilarga moliyaviy sanksiyalar sud tartibida qo'llaniladi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddati o'tkazib yuborilganligi uchun penya hisoblash, shuningdek soliq to'lovchi sodir etilgan huquqbuzarlikdagi aybini tan olgan va jarimani ixtiyoriy ravishda to'lagan hollar bundan mustasno. Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar faqat sud tartibida qo'llaniladi, penya hisoblash hollari bundan mustasno (2-rasm).



⁷ Xojiyev E. "Soliq huquqi" modulidan o'quv uslubiy majmua. –T. TDYuI, 2018.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga ko‘ra moliyaviy sanksiyalarni qo‘llash tartibi (218-modda)⁸

Moliyaviy sanksiyalar Soliq kodeksining normalarida nazarda tutilgan miqdorlarda belgilanadi va jarimalar tarzida qo‘llaniladi.

Soliqlar, boshqa majburiy to‘lovlar va penya materiallar sudga berilgan kundan e‘tiboran o‘ttiz kun ichida ixtiyoriy ravishda to‘langan taqdirda tadbirkorlik subyekti – soliq to‘lovchi o‘ziga nisbatan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lamaganligi uchun jarimalar qo‘llanilishidan ozod qilinadi.

Soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun moliyaviy sanksiyalar faqat sud tomonidan qo‘llaniladi. Qarorga muvofiq, 2023 yil 1 oktyabrdan tadbirkorlarga miqdori 10 million so‘mdan yuqori bo‘lgan soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun, agar tadbirkorlik sub’yekti huquqbuzarlikni inkor etsa, moliyaviy sanksiyalarni faqatgina sud tartibida qo‘llash amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida soliqqa oid huquqbuzarlik uchun moliyaviy sanksiyalar belgilangan (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida soliqqa oid huquqbuzarlik uchun belgilangan moliyaviy sanksiyalar⁹

№	Qonunbuzilish holatlari	Moliyaviy sanksiyalar miqdori
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘ining soliq to‘lovchisi sifatida soliq organlarida hisobga qo‘yish tartibini buzish.	Haqiqatda hisobga qo‘yilgan sanagacha bo‘lgan davrda olgan daromadining besh foizi miqdorida, lekin besh million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima (SK 219-moddasi birinchi qismi).
2	Soliq solish ob’yekti bo‘yicha soliq organlarida hisobga qo‘yish muddatlari buzish	Hisobga qo‘yishning belgilangan muddatidan o‘tishi: o‘ttiz kundan ko‘p bo‘lmaganda, — bir million so‘m miqdorida jarima; o‘ttiz kundan ko‘p bo‘lganda, — ikki million so‘m miqdorida jarima. (SK 219-moddasi ikkinchi qismi).
3	Chet el yuridik shaxsi tomonidan doimiy muassasasini tashkil etishga olib keluvchi faoliyatning soliq organida hisobga qo‘ymasdan amalga oshirilishi.	Haqiqatda hisobga qo‘yilgan sanagacha bo‘lgan davrda olgan daromadining o‘n foizi miqdorida, lekin o‘n million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima (SK 219-moddasi uchinchi qismi).
4	Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan faoliyatni amalga oshirish.	Faoliyatdan olingan daromadlarning o‘n foizi, lekin bir million so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda jarima (SK 219-moddasi to‘rtinchi qismi)
5	Soliq hisobotini belgilangan muddatlarda taqdim etmaslik.	Soliq hisobotini o‘z vaqtida taqdim etmaganlik uchun soliq to‘lovchi bo‘lgan yuridik shaxsning mansabdor shaxsi yoki soliq to‘lovchi bo‘lgan jismoniy shaxs ma‘muriy javobgarlikka tortiladi.(SK 220-moddasi).

Soliq kodeksi soliqqa oid huquqbuzarliklarning quyidagi turlarini belgilab bergan:

⁸ Isaeva F., O‘zbekiston respublikasida soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik qo‘llashning o‘ziga xos jihatlari // Yuridik fanlar axborotnomasi, Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent, -2021

⁹ O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi



- 1) davlat soliq xizmati organidahisobga turishdan bo‘yin tovlash;
- 2) Kirim qilinmagan tovarlarni saqlash yoxud tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko‘rsatish);
- 3) soliq hisobotini taqdim etish tartibini buzish;
- 4) buxgalteriya hisobini yuritish tartibini buzish;
- 5) faoliyat turlari bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug‘ullanish;
- 6) hisobvara-q-fakturalarni rasmiylashtirish tartibini buzish;
- 7) fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarining qo‘llanilish tartibini buzish;
- 8) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash muddatlarini buzish;
- 9) yer uchastkalaridan ularga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarsiz foydalanish¹⁰.

O‘zbekiston Respublikasida hozirgi kunda amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimini isloh qilish hamda erkinlashtirilishi sharoitida soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri – bu soliq yukini kamaytirish, soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni liberallashtirish, shuningdek soliq xizmati organlarida faoliyat yurituvchi kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishdan iboratdir. Ushbu masalalarni hal qilish yuzasidan davlatimiz tomonidan bir qator soliq islohotlari amalga oshirilmoqda.

XULOSA

Soliq to‘lovchining soliqqa oid huquqbuzarliklari uchun javobgarlikka tortilishi uni soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyatidan ozod etmaydi. Huquqbuzarlik uchun javobgarlik soliq to‘lovchi tomonidan o‘ziga yuklatilgan majburiyatni bajarmaganlik holatida vujudga keladi va o‘zining funksiyasiga ko‘ra soliq to‘lovchi tomonidan o‘z majburiyatlarini bajarishdan ozod etuvchi emas, balki bajarishga majburlovchi huquqiy vositalardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan majburiyatni bajarmaslik natijasida to‘lanmagan soliq va boshqa majburiy to‘lovlar javobgarlikka tortish natijasida o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘lib ketmaydi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan maxsus prinsiplar ham mavjud, lekin bunday prinsiplar yuqorida biz ko‘rib o‘tganimiz kabi ajratilgan holda alohida normalarda prinsip tariqasida o‘z aksini topmagan bo‘lib, ularni qonun normalarining mazmun-mohiyatini tahlil qilgan holda aniqlash mumkin.

Moliyaviy sanksiyalar kodeksiga asosan faqat sud tartibida qo‘llaniladi deyilgan bo‘lsada, istisno etuvchi holat sifatida penyani va agar shaxs moliyaviy jarimalarni ixtiyoriy to‘lagan bo‘lsa, sud tartibida qo‘llanilmasligi ham mumkinligi belginlangan. Fikrimizcha, yoki moliyaviy sanksiyani faqat sud tartibida qo‘llash lozim. Yoki ayrim holatlarda soliq xizmati organlari tomonidan ham qo‘llanilsa, moliyaviy sanksiya faqat sud tomonidan qo‘llaniladi degan qoidani chiqarib tashlash

¹⁰ Amanov A.M., Djamalov X.N., Soliq huquqi – O‘quv qo‘llanma, Toshkent-2019, 293-bet



maqsadga muvofiqdir. Bu soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirishga xizmat qilgan bo'lar edi;

Soliqqa oid qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni adolatli bo'lishi, shuningdek davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida javobgarlikni liberallashtirish yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, hamda iqtisodiyotni mustahkamlashga qaratilgan muhim chora-tadbirlardir.

Soliq qonunchiligini buzganlik uchun nafaqat moliyaviy javobgarlikni, balki ma'muriy va jinoiy javobgarlikni yanada liberallashtirish lozim. Bu tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlanishidagi to'siqlarni bartaraf etishga xizmat qilgan bo'lardi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni adolatli bo'lishi, shuningdek javobgarlikni liberallashtirilishi, birinchi navbatda, davlatimiz tomonidan tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga, shuningdek soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni liberallashtirishga qaratilgan muhim choratadbirlardir. Bu chora-tadbirlar, avvalo, qo'llaniladigan moliyaviy sanksiyalarning adolatli bo'lishini, shuningdek tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratilishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2020
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risidagi” 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni savarali amalga oshirish tadbirlari to'g'risida”gi 2020 yil 6 oktyabrdagi PF-6079 sonli Farmoni
4. Mahmudov N., Adizov S. Soliqlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini baholash: nazariya, amaliyot va modellashtirish. Monografiya. –T.: “Fan”, 2014. -106 b.
5. Amanov A.M., Djamalov X.N., Soliq huquqi – O'quv qo'llanma, Toshkent-2019, 293-bet
6. Isaeva F., O'zbekiston respublikasida soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik qo'llashning o'ziga xos jihatlari // Yuridik fanlar axborotnomasi, Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent, -2021
7. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik- T.:Sharq, 2009. 448 bet.
8. Alimardonov M.I., To'xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. –T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, - 175 b.
9. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti, Darslik (qayta ishlangan)- T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003.-247 bet.
10. Mayburova I.A., Налоги и налогообложение: учеб. – М.: Юнити-дана, 2010. – 559 с.



11. Bandara K. A. G., Weerasooriya W. M. R. B. (2021). A conceptual research paper on tax compliance and its relationships. *International Journal of Business and Management*, 14(10), 134–134. <https://doi.org/10.5539/ijbm.v14n10p134>
12. Cirman A., Pahor M., Starček S. (2021). Addressing evasion and tax morale by educating young taxpayers. *EDUvision*38.
13. Engida T. G., Baisa G. A. (2014). Factors influencing taxpayers' compliance with the tax system: An empirical study in Mekelle city. Ethiopia. *eJTR*, 12, 433.
14. European Commission. (2017). European semester thematic factsheet taxation. Retrieved November 12, 2021,
15. OECD. (2021). Building tax culture, compliance and citizenship: A global source book on taxpayer education (2nd ed.). OECD Publishing.
16. OECD/FIAPP. (2015). Building tax culture, compliance and citizenship: A global source book on taxpayer education. OECD Publishing
17. Xakimov R.X., qurbonov Z.N. "Soliq huquqi" o'quv qo'llanma. –T. 2010.
18. Xojiyev E. "Soliq huquqi" modulidan o'quv uslubiy majmua. –T. TDYI, 2018.
19. Xvan L.B. "Soliq huquqi" Darslik. –T. 2001. -432 b.
20. Yo'ldoshev M., Tursunov Y. "Soliq huquqi" darslik. –T. 2000. -262 b.
21. Anufrieva L.P. Международное частное право. В трех томах. Т.2. Особенная част. М. 2010. - 656 s
22. Malikov T., Haydarov N., "Moliya: umumdavlat moliyasi" o'quv qo'llanma. Toshkent, "IQTISOD-MOLIYA", 2009 y. 556 b.
23. Almardonov M. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. –T.: "Cho'lpon nomidagi NMIU", 2013. -296 b.
24. Евстигнеев Е.Н. Налоги и налогообложение. 3-е изд. – СПб.: Питер, 2009. – 223 С.
25. Сердюков А.Э., Вылкова Е.С, Тарасевич А.Л. Налоги и налогообложение. – Санкт-Петербург.: «Питер», 2008. - 502. С
26. Евстигнеев Е.Н. Основы налогового планирования. – Санкт-Петербург.: «Питер», 2004. –. 196С.
27. Тихонов Д.Н., Липник Л.Г. Налоговое планирование и оптимизация налоговых рисков. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2004. –. 105 С.
28. Козенкова Т.А. Налоговое планирование на предприятии. – М.: АиН, 1999. – С. 15.
29. Филин С.А. Финансовый риск и его составляющие для обеспечения процесса оценки и эффективного управления финансовыми рисками при принятии финансовых управленческих решений // *Финансы и кредит*. 2002. №3. С.21-31; №4. С. 9-23.
30. Avstraliya soliq boshqarmasi materiallari - <http://www.ato.gov.au>
31. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
32. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi
33. <http://www.soliq.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti
34. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti